ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

ГУЛИСТОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ПЕДАГОГИКА ФАКУЛЬТЕТИ

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ КАФЕДРАСИ

*Қўлёзма ҳуқуқида*

5110900-Педагогика ва психология таълим йўналиши бўйича
бакалавр академик даражасини олиш учун

Худойқулова Мақсуда Эргашевнанинг

МЕҲРИБОНЛИК УЙИ ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРИНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ
мавзусидаги

# БИТИРУВ-МАЛАКАВИЙ ИШИ

Дастлабки ҳимояда муҳокама қилинди ва ҳимояга тавсия этилди.

"Педагогика ва психология" кафедраси мудири, пед.ф.н., доц.

______________Д.Э.Тоштемиров

Баённома №__________

"___" __________ 2020 й.

Ҳимояга тавсия этаман.
Факультет декани, пед.ф.н., доц.

______________Ж.Комилов

"___" _________ 2020 й.

Илмий раҳбар, пед.ф.н., доц.

____________О.Суванов

"___" _________ 2020 й.

Янгиер - 2020

Scanned by CamScanner

# Mundarija.


Kirish ______ 3

I BOB. Mehribonlik uylarida ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yishning ijtimoiy-pedagogik moxiyati ______ 13.

1.1. Mehribonlik uylarining tashkil etilishi insonparvarlikning oliy namunasi sifatida ______ 13

1.2. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlarning pedagogik-psixologik asoslari ______ 23

II BOB. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning samarali tizimi ______ 34

2.1. Bolalar shaharchasi oilaviy mehribonlik uylarida oila institutining o'ziga xos mazmun-moxiyati asosida faoliyatning yo'lga qo'yilishi ______ 34

2.2. Tarbiyalanuvchilarni oilaviy munosabatga kirishishning pedagogik-psixologik tamoyillarga amal qilishga tayyorlash ______ 43

2.3. Tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning zamonaviy usul va vositalari ______ 53

III BOB. Tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash yuzasidan tajriba sinov ishlari ______ 63

3.1. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi ______ 63

3.2. Tajriba-sinov ishlari natijalarining tahlili ______ 69

Umumiy xulosa va tavsiyalar ______ 71

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ______ 79

Ilovalar ______ 82


Scanned by CamScanner

# Kirish.

**Mavzuning dolzarbligi.** Ôzbek zaminida farzand tarbiyasi masalasi jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida qadimdan etirof etib kelinadi.

Ôzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov: buyuk davlatimizning kelajagini belgilab beruvchi islohatlarimizning asosiy besh tamoyilini kôrsatib bergan edilar. Ayniqsa islohatlarning tôrtinchi tamoyili kam taminlangan, oilalar, nogironlar, yetim-yesirlar, qariyalar va bolalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan bôlib, u xalq turmushini mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirishga yônaltirilganligi ham bejiz emas.

Birinchi Prezidentimiz „Ôzbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yônalishlari" deb nomlangan asarida shunday fikrlarni keltirib



Scanned by CamScanner

ötganlar.
„Ğanimlar nimalar deb safsata sotmasin, Özbekiston rahbariyati va xalqining tutgan yöli qat'iy va mustahkam: biz doimo mehr-muruvvat, mehr-oqibat, yurtimizda tinchlik-totuvlik, xotirjamlikni saqlashga sodiq bölib qolavera-miz. Vatandoshlarimiz bir-biriga yelkadosh, ahil-inoq bölib yasha-shida, yetim-yesirlar, nogironlar, qariyalar va bolalar qarovsiz va muhtoj kishilarimiz himoya-sini tashkil etishda özimizning kuchimizni va mehnatimizni hech qachon ayamaymiz" [1.1,..].
Bunday dono fikrlar bugungi kunda ham özining amaliy tasirini körsatib kelmoqda. Xususan, muxtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev-ning 2019-yil 11-fevral kuni „Yetim bolalar va ota-onasining qaramoğidan mahrum bölgan bola-larni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qöshimcha chora-tadbirlar töğrisida"gi qarorni

imzolagani fikrimizning dalilidir. So'ngi yillarda mamlakatimizda aholi va yoshlar orasida sog'lom oilaviy muhit yaratishni targ'ib qilish va buning natijasida ijtimoiy yetimlikning oldini olish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu kabi samarali harakatlarimiz o'zini oqlagan holda bugungi kunga kelib mamlakatimizda yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar soni sezilarli ravishda kamaymoqda deyish mumkin.

Bugungi kunda muxtaram Prezidentimiz alohida e'tirof etayotgan masalalardan biri bo'lgan oila, oilaviy munosabatlar hamda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilayotgan chora-tadbirlarga tayangan holda. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini ham oilaviy hayotga tayyorlash, ularda oilaviy munosabatlar borasida bilim, ko'nikmalarini



Scanned by CamScanner

shakillantirishga alohida etibor qaratish maqsadga muvofiq boladi.
Ma'lumki yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oiladagi yoshi katta insonlar bilan bir qatorda maxallaning ham tasir doirasi kattadur. Shu borada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ham maxallaning orni beqiyos.
Ota-ona mehriga muhtoj, lekin hukumatning gamxorligi ostida Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarni oilaviy munosabatga tayyorlashda butun jamoatchilik birgalikda harakat qilmogimiz lozim.
Bugungi kunda Mehribonlik uylarida ta'lim - tarbiya ishlarini olib borish, shuningdek ularni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning ilmiy nazariy asoslarini tadqiq etish, shakl va usullarini ishlab chiqish davlat ahamiyatiga ega bolgan dolzarb masaladir.
Shunday ekan bu faoliyatni oʻzaro hamkorlikda tashkil etish



Scanned by CamScanner

maqsadga muvofiqdir.

**Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusining o'rganilganlik darajasi.**

Bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi yuzasidan ko'plab olimlar o'zlarining ilmiy-ijodiy izlanishlarini amalga oshirib, qimmatli fikirlarini bayon qilganlar.

Jumladan O'rta Osiyo qomusiy olimlarining ijtimoiy pedagogik faoliyatlarida ham qarovchisiz qolgan bolalarga mehr-muruvvat ko'rsatish kabi ezgu ishlarni ko'rish mumkin.

Al-Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino Ulug'bek kabi olimlar buyuk kashfiyotlari va ilmiy-nazariy ta'limotlarida rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi va ta'lim beruvchi ta'sir kuchlarini o'sib kelayotgan avlodga qaratish g'oyasini ilgari surishgan va buni tatbiq etishgan.

XIX-XX asrlarga kelib yurtimiz olimlari O'rta asr olimlarining ijtimoiy pedagogika sohasida qoldirgan katta merosidan foydalan-



Scanned by CamScanner

ib Saidaxmad Siddiqiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvar olimlarimiz boquvchisiz qolgan bolalarga g'amxo'rlik qilishi ularga ta'lim-ta'rbiya berishni yo'lga qo'ygan.

Mustaqillik yillarida ham bu ishlar davomli tarzda olib borilmoqda. Davlatimiz rahbarlari qatorida ko'plab olimlar ushbu muammoga e'tibor berib kelmoqdalar.

Ular qatorida E. Qodirov, S. Rajabov, U. Mo'minjonov, A. Ismoilova, M. Ochilov, Sh. Xalilova, Y. Nurumbekova kabi mutaxassis va olimlar o'zlarining ilmiy metodik faoliyatlarini olib borishmoqda.

Bundan tashqari T. Usmonovning „Mehribonlik uyimiz" deb nomlangan kitobi hamda O'. Asqarovning „Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimi" nomli monografiyasi alohida ahamiyatga egadir.

Dunyoning turli mamlakatlarida ham ushbu mavzuga e'tibor



Scanned by CamScanner

yaratilib kelingan. Ijtimoiy gumanizm g'oyalarining ilk kurtaklari Italiya-lik pedagog gumanist Vettorino de Feltre tomonidan "Quvonch uyi" nomli internat maktabining yaratili-shi bilan bog'liq.

Qarovchisiz qolgan bolalarga bu kabi g'amxo'rlik ko'rsatish ishlarini keyinchalik, Yan Amos Komenskiy, Iogan Pestalotsiy, Robert Ouen, Yanosh Korchak, Anton Makarenko kabi pedagoglar faoliyatida ham ko'rish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi:**
Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik usul va shakl-larini ishlab chiqish hamda amaliy faoliyatda qo'llash.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:**
- Mehribonlik uylaridagi tarbiyalanuv-chilarda oilaviy munosabatlarga tay-yorlashning tarixiy tajribalarini o'rganish.
- Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini barkamol shaxs sifatida tarbiyalash-

ning metodik tavsiyalarini ishlab chiqish.
- Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari-ni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning samarali usullarini shakllantirish.
- Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari-ga mehr etibor ko'rsatishga, ularga g'amxo'rlik qilishga butun insoniyat-ni davat etish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida oilaviy munosabatlarni shakllantirish va ularni shu ruhda tarbiyalashning mazmuni, metodlari, vosita va shakllari.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari. Kuzatish, suhbat, anketa va test so'rovlari, matematik - statistik tahlil.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy - nazariy ahamiyati.
Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy mohiyati shundan iboratki, Mehribonlik



Scanned by CamScanner

uylarida tashkil etilgan ta'lim - tarbiya haqidagi ko'plab tarixiy manbaalar o'rganib chiqilib, ulardan xar xil qarashlarini qiyosiy tahlil etgan holda eng maqullarini aniqlab, bugungi kunda Mehribonlik uylarida ta'lim - tarbiya berish bilan bir qatorda tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashni joriy etishni belgiladik.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati.

Izlanishlarimiz doirasida o'rganilgan ilmiy nazariy adabiyotlar tahlili hamda ilgari surilgan nazariy g'oyalar va xulosalar, ta'lim - tarbiya tizimidagi mavjud nazariy bilimlarni boyitishga xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati shundan iboratki mehribonlik uylari tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari, o'rta maxsus o'quv yurtlari - pedagoglari va keng jamoatchilik qarovchisi bo'lmagan, yoki nodoniyatli oilalar farzandlarini ijtimoiy himoya qilishda qo'llanma sifatida foyda-



Scanned by CamScanner

barish lari mumkin deb xisoblaymiz.

Mehribonlik uylaridan mustaqil hayot kechirishga o'tgan, yaqin kelajakda oila qurib, oilaviy munosabatlarga kirishuvchi yoshlar ham o'zlari uchun uslubiy qo'llanma sifatida foydalansalar ijobiy natijalarga erishish-lari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishimizning tarkibiy tuzilishi quydagicha; kirish, uchta bob, ularning tarkibiga kirgan yettita paragraf, xulosa va uslubiy tavsiya-lar, foydalanilgan adabiyotlar ro'y-xatidan iborat bo'lib 82 sahifani tashkil etadi.



Scanned by CamScanner

# I - BoB. Mehribonlik uylarida ta'lim-tarbiya-ni yo'lga qo'yishning ijtimoiy pedagogik mohiyati.

## 1.1. Mehribonlik uylarining tashkil etilishi insonparvarlikning oliy namunasi sifatida

Mehribonlik uylari - yetim va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalar uchun davlat tomonidan ochilgan ta'lim-tarbiya muassasasidir.

Shuningdek yetim yoki qonuniy vasiylar qaramog'ida bo'lmagan bolalar, ota-onalari sud hukmi bilan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan, ota-onalari voz kechgan bolalar uchun tashkil qilingan.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarni o'qitish va boqish to'liq davlat ta'minoti asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Muassasa 3 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan boquvchisini yo'qotgan sog'lom bolalarni qamrab olgan



Scanned by CamScanner

holda ularga ta'lim-tarbiya berib boradi.
Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak ota-onasiz va qarovchisiz qolgan bolalar uchun doimo mehr-muruvvat ko'rsatilib, ularning yashashlari, ta'lim-tarbiya olishlari uchun imkoniyatlar yaratilgan.
Xususan xonlik davrlarida ham yetim bolalar uchun maktablar tashkil etilganligi haqida ma'lumotlar mavjud.
Qo'qon xonligi arxiv materiallaridan „Sag'ira" „Gullar" deb nomlangan manbaalar o'rganilganda Marg'ilon bekligida qarovchisiz qolgan bolalar uchun maktablar tashkil etilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.
O'zbek xalqining mehr-oqibatli, bolajon xalq ekanligini ifoda etuvchi bu kabi manbaalarni ko'plab keltirish mumkin.
Masalan, O'rta Osiyo jadidchiligining yorqin vakillari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf

Fitrat kabi ma'rifatparvarlarimizning faoliyatlariga nazar tashlaylik.

Abdulla Avloniy ijodiy faoliyatini axolining ijtimoiy savodxonligini kôtarishga bagishladi va bu yôlda u kambagal hamda qarovchisiz qolgan bolalarni ham nazaridan chetda qoldirmagan holda ular uchun bepul maktablar tashkil qilib ôquv materiallari bilan taminlagan.

Bu kabi harakatlarni jadidchilik harakatining barcha vakillari faoliyatlarida kôrishimiz mumkin.

Ikkinchi jahon urushi paytlarida SSSR ning turli hududlaridan Ôzbekistonga keltirilgan har xil millatga mansub 14-nafar bolani boqib olgan Toshkentlik temirchi Shoahmad Shoahmedov va turmush ôrtogi Baxri Akramovalarning bu mehnatlari taxsinga sazovordir.

Urushning beshafqat qurbonlari bôlgan bu norasida gôdaklar



Scanned by CamScanner

birgalikda Shoahmedovlar oilasini tashkil qilgan.
Shomahmud Shoahmedov va Baxri Akramovalar bu bolalarga birdek mehr berib boshini silashdi. Bolalar boshqa-boshqa millat vakillari bo'lishiga qaramasdan ularni O'zbekona odob-axloq meyorlari bilan tarbiyalab voyaga yetkazishgan.
Bunday mehri daryo insonlarning mehnatlari bugun ko'plab insonlar uchun ibrat-namuna bo'la olyapdi deyishimiz mumkin.
Qarovchisiz, mehrga tashna qalblarga malham bo'lib, ularga quvonch, baxt ulashish eng oliy saodatdir.
Afsuncha, murg'ak go'daklarni mehrga, muhabbatga ilhaq qilib, ko'zlarida alamli ko'zyoshlari bilan tashlab ketish kechirilib, unutilib bo'lmas gunoh.
Mana shunday kimsasiz yolg'iz qolgan bolalar uchun O'zbekistonda



Scanned by CamScanner

mehribonlik uylari dastlab 1918 yil yetimxonalar asosida bolalar uyi nomi bilan tashkil etilgan.

Mamlakatimizda bunday muassasalarning tashkil etilishi insonparvarlikning oliy namunasi sifatida qadirlanadi.

Ammo, tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi bu holatga ham boshqa tomondan yondoshsak yurtimizda mehribonlik uylarining tashkil etilishi, ularning soni ortib borishida, shuningdek bu muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ko'payib borishi achinarli holatdir.

Ming afsuslar bo'lsinki, bugun jamiyatimizda bu kabi achinarli holatning tez-tez guvohi bo'lib qolmoqdamiz.

Mamlakatimizda bu kabi salbiy harakatlarning ko'payib borishi O'zbek millatining bolajon xalq deb dunyo davlatlari etrof etgan qadriyatlariga zid holda namoyon bo'lib qolmoqda.



Scanned by CamScanner

Bugungi kunda mamlakatimizda Qarovchisiz qolgan bolalarning kamol topishiga barkamol shaxs sifatida tarbiyalanishida Özbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi, „Sen Yolgiz Emassan" Respublika jamoatchilik bolalar jamgarmasi, Bolalar ijtimoiy moslashuv markazi, Mehribonlik uylari özaro hamkorlikda faoliyatlarini yolga qoyishgan.

Yuqoridagi ushbu muassasalar faoliyatida Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, shuningdek Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, Özbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoishlariga hamda öz ustaviga amal qiladi.

Mehribonlik uyi ustavi xalq ta'limining tegishli organi tomonidan tasdiqlanadi.

Mehribonlik uyining namunaviy

ustavi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi.

Mehribonlik uylari quyidagi tiplarga bo'linadi.

- Maktabgacha Mehribonlik uylari 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun.
- Mehribonlik uyi: maktabgacha va maktab yoshidagi yoki faqat maktab yoshidagi bolalar uchun.
- Maxsus korreksion Mehribonlik uyi jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun.

Ushbu mehribonlik uyi tiplari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilanadi.

Mehribonlik uyi bank hisob raqamiga, O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tushirilgan muhrga, o'z nomi yozilgan shtamp va blankalarga ham ega bo'ladi.



Scanned by CamScanner

Bugungi kunda Mehribonlik uylari yuqorida sanab o'tilgan huquqiy me'yoriy hujjatlar asosida o'z faoliyatlarini olib bormoqda.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarning maktab o'quv dasturlarini to'liq o'zlashtirishlari ta'minlanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash maqsadida turli to'garaklar ham tashkil etilgan.

Shuningdek yuqoridagi maqsadlarga qaratilgan ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarni olib borish ham yo'lga qo'yilgan.

Mehribonlik uylarining asosiy vazifalari yetim bolalar va ota-onasining qaramisiz qolgan bolalarni tarbiyalash, kamol toptirish, tarbiyalanuvchilarni to'liq ruhiy sog'lomlashtirish, ijtimoiy ko'maklashishdir. Bundan tashqari bolalarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirib borish uchun



Scanned by CamScanner

sharoitlar yaratish.

Mehribonlik uylariga bolalar yil mobaynida qabul qilinadi. Jismoniy yoki psixologik jihatdan nuqson-lari bo'lgan yetim va ota-ona-sining qaramisiz qolgan bolalar ixtisoslashtirilgan ta'lim muas-sasalariga yoki maxsus korreksion Mehribonlik uylariga belgilangan tartibda joylashtiriladi.

Ushbu muassasalardagi faoliyat-ning tub mohiyati qaramisiz qolgan bolalarga g'amxo'rlik qilish, ularni davlat himoyasiga olish-dan iboratdir.

Birinchi Prezidentimiz I. Karimov „Mehribonlik uylarini faoliyatini tashkil etish va ularni qo'llab quvvatlash borasida samarali faol-iyatni olib borgan edilar.

Bugun birinchi Prezidentimizning faoliyatlarini davom ettirgan holda muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham ijtimoiy himoyaga muhtoj, qaramsiz qolgan bolalarni qo'llab-quvvatlagan holda Mehribonlik



Scanned by CamScanner

uylariga alohida e'tibor qaratmoqdalar.

2019-yil 11 fevralda Prezidentimizning „Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar"ni ishlab chiqish to'g'risida" qarorni imzolashi juda katta o'zgarishlarga sabab bo'la oldi deyish mumkin.

Mazkur qarorga binoan Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonlarini yanada kuchaytirish maqsadida tizimli yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Ushbu yo'l xaritasiga „Mehribonlik uylari" va bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarini dasturlash ko'nikmalariga o'rgatish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatib borish vazifasi ham kiritilgan.

Bu o'zgarishlarning tub mohiyati qarovchisiz qolgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoyaga olishdir.



Scanned by CamScanner

## 1.2. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlarning pedagogik - psixologik asoslari.

Maxsus maktab - internatlari va mehribonlik uylari hayotida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishda tarbiyachining boshqalar bilan almashtirib bo'lmaydigan o'ziga xos o'rni bor.

Tarbiyachi faoliyatining aksariyat qismi tarbiyaviy jarayon bilan bog'liqdir. U o'z guruhi jamoasini tashkil qiladi, uyushtiradi va tarbiyalaydi.

Bugungi kunda mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi bolalar uchun turli sohalarda juda qulay bo'lgan darajada shart-sharoitlar yaratilgan. Mehribonlik uylaridagi tarbiyalanuvchilar soni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan sanitariya va gigiena normalariga majburiy



Scanned by CamScanner

roiya qilgan holda belgilanadi. Lekin tarbiyalanuvchilarning soni 140 nafardan oshmasligi kerak.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari har xil yoki bir xil yoshdagi tarbiyalanuvchilar guruhlariga birlashtiriladi.

- 7 yoshgacha bo'lgan turli yoshdagi bolalar guruhlarida tarbiyalanuvchilar soni 10 nafar etib belgilanadi.

Bir xil yoshdagi tarbiyalanuvchilar guruhlarida esa quyidagicha taqsimlanadi.

- 4 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhida 8 nafar.
- 4 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhida esa 12 nafar bola bo'ladi.

Tarbiyalanuvchilar guruhlaridagi o'quvchilar soni 1-IX sinflarda 17 nafar bo'lishi lozim.

Bundan tashqari mehribonlik uylarida korreksion guruhlar ham tashkil etilishi mumkin



Scanned by CamScanner

Tarbiyalanuvchilarni korreksion guruhlarga yo'llash faqat tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasi asosida amalga oshiriladi.

Bolalarning yuqorida keltirilgan tartibda guruhlarga taqsimlanishida ularning yosh davrlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bundan tashqari guruhlarda bolalar sonining kam yoki ko'p bo'lishi guruhni tashkil qilayotgan bolalar yoshining o'zlashtirish darajalari ham inobatga olinadi.

Bu kabi shart-sharoitlar har bir mehribonlik uylarida joriy etilgan. Bunday sharoitlar tarbiyalanuvchilarga nisbatan e'tiborning dastlabki ko'rinishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb

etish, shuningdek axborot texnalo-giyalaridan foydalanish konikma-larini singdirish yoshlar ortasida kitobxonlikni targib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masala-lariga bagishlangan videoselek-tor yigilishi otkazilali. Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yolga qoyish boyicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. 5 tashabbusning 4 tasi aynan yoshlarga qaratilgan bolib, bugun belgilangan tartib asosida joylarda faoliyatlar yolga qoyilgan.

Yoshlarga qaratilgan bunday imkoniyatlardan Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari ham nazardan qolgani yoq.

Bugun Davlatimiz rahbari bosh-chiligida va homiylarning yordami tufayli „Mehribonlik" uyida tarbiya-lanuvchi bolalar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilib berilgan.

Jumladan mehribonlik uylaridagi



Scanned by CamScanner

barcha xonalar zamonaviy axborot texnalogiyalari va maishiy texnika vositalari bilan tamirlangan.

Bundan tashqari Qiziqarli badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan jihozlangan kutub xonalar-u, turli tögaraklarda ögil qizlarimizning faolliklarini körish mumkin.

Bu faoliyatlarga bugun 5 tashabbus asosida yanada e'tibor kuchaytirilib amaliyotga kengroq targib qilinmoqda.

Ayni kunlarda mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarning ham hordiq, ham kasbga yunaltirish ishlari yaxshi yölga quyilgan. Bolalarning dam olishdan tashqari bösh vaqtlarini maroqli ötkazish maqsadida „Mehribonlik" uylarida tikuvchilik, kampyuter, „Bolalar folklori", „Yosh musavvirlar" kabi tögaraklar faoliyat yuritmoqda.

Bu kabi yaratilgan shart-sharoitlar tarbiyalanuvchilarning barkamol shaxs bölib tarbiya-



Scanned by CamScanner

kamolotiga asos bo'la oladi.
Muxtaram Prezidentimiz o'z nutqlarida „Yoshlar bizning kelajagimiz" deya juda ko'p bora takrorlaydilar. Albatta yoshlar yurtning, Davlatning, Millatning kelajagini belgilaydi. Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalar ham ana shu yoshlar qatorida turadi.
Nemis davlat arbobi Otto fon Bismark ta'lim-tarbiya borasida juda ham ta'sirli so'zlarni keltirib o'tganlar o'z nutqlarida.
„Ta'lim-tarbiyaga pulini ayagan davlat qamoqxona qurishga tayyor tursin". [2]
Bu jumlalar juda katta siyosiy ma'noga egadir. Avlod davomchilari bo'lgan yoshlar yetarli sharoitlarda ilm-ma'rifat olmas ekan, bu yoshlarga kelajakni ishonib topshirib bo'lmaydi.
Bugungi kunda muhtaram Prezidentimizning oqilona boshqaruvida mamlakatimizda barcha yoshlar



Scanned by CamScanner

shu jumladan qarovchisiz qolgan bolalar ham ijtimoiy, qo'llab-quvvatlanib ta'lim-tarbiya olishlari, o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashi uchun barcha shart-sharoitlar mavjuddir.
Bu sharoit va imkoniyatlardan oqilona foydalanish o'zimizga bog'liq.
Mehribonlik uylaridagi ta'lim-tarbiya ma'naviy-axloqiy ishlar ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik va dunyoviy tamoyillari asosida quriladi.
Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining umumiy o'rta ta'lim davlat standartlariga muvofiq fanlarning asoslari bo'yicha muntazam bilim, ko'nikma va malakalarini egallab olishiga ko'maklashadi.
Shuningdek bolalarda milliy va umuminsoniy, ma'naviy-axloqiy fazilatlar ham shakllantirilib boriladi.
Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining intellektual, axloqiy, jismoniy rivojlanishlari hamda mustaqil



Scanned by CamScanner

hayotga tayyorlash uchun eng ko'p darajada qulay imkoniyatlar, shart - sharoitlar yaratilgan.
Muxtasar qilib aytganda, bugun „Mehribonlik" uylarida yaratilayotgan imkoniyatlar tarbiyalanuvchilarning murg'ak qalblariga baxtni quvonchni xotirjamlikni ta'minlashga qaratilgandir.
Mehribonlik uylarida ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning pedagogik -psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda tarbiyaning maqul texnalogiyalari, shakllari va usullari tanlanadi. Tarbiyalanuvchilarning individual, ta'limni rivojlantiruvchi ehtiyojlarini qondirish, ularning iste'dod va qobiliyatlarini rivojlantirish borasida ham maqsadli rejalar ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq qilingan.
Bolalarni kasbga yunaltirish uchun ularning qiziqishlari va moyilliklari aniqlanib keyin kasbga yunaltirish amalga oshiriladi.



Scanned by CamScanner

Bundan tashqari Mehribonlik uy-larida ham muassasaning ham boshqa homiy tashkilotlar mab-lag'lari hisobiga turli klublar, seksiyalar to'garaklar, studiya-lar tashkil etilgan.

Bunday shart-sharoitlarning yaratilishi bolalarning ma'naviy dunyoqarashini boyitishga ruhiy sog'lomlikka erishtirish maqsad-larida tashkil etilgan.

Mehribonlik uylari tarbiyalan-uvchilari O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tomon-idan belgilangan tartibda tasdiqlangan Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishning bitta sut kalik maqbul mey-orlariga muvofiq oziq-ovqat shuningdek, kiyim bosh, poyabzal, yumshoq jihozlar bilan ta'min-lanadi.

Mehribonlik uyi ma'muriyati tarbiyalanuvchilarning o'rta maxsus kasb hunar ta'lim muassasalariga



Scanned by CamScanner

kirishga yordam beradi.

Shuningdek, tarbiyalanuvchi o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalariga o'qishga kirgan taqdirda Mehribonlik uyi mamuriyati tarbiyalanuvchiga vasiylik qilishni davom ettirishi belgilab qo'yilgan.

Yuqorida keltirilgan Mehribonlik uylaridagi imkoniyatlar, shart-sharoitlar tarbiyalanuvchilarning barkamol shaxs sifatida kamol topishlariga qaratilgan harakatlardir.

Bugun yurtimizda yoshlar manfaatlarini himoya qilish ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, orzu intilishlari amalga oshishiga ko'maklashish, mehr-e'tiborga muhtoj bolalarga moddiy va ma'naviy jihatdan yordam ko'rsatishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish hukumatimiz va shaxsan Prezidentimizning doimiy



Scanned by CamScanner

diqqat markazida bo'lib kelmoqda.
Davlatimiz rahbarining yosh avlodga qaratayotgan e'tiborlari, yaratayotgan shart-sharoitlarining qadriga yetgan holda, biz yoshlar kuchli bilim, ko'nikma malakalarga ega bo'lmog'imiz lozim. Bir narsani unutmaylik bugun bizning mustaqil O'zbekistonimizda mavjud imkoniyatlar boshqa davlat yosh avlodlari uchun orzu bo'lishi mumkin.
Shuning uchun bor narsani borligida qadirlashni o'rganaylik.



Scanned by CamScanner

# II. BOB. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashning samarali tizimi.

## 2.1. Bolalar shaharchasi, oilaviy mehribonlik uylarida, oila institutining unga xos mazmun-mohiyati asosida faoliyat yo'lga qo'yilishi.

Har qanday jamiyatning asosini oila tashkil etadi. Oila ijtimoiy hayotning inson tug'ilib, o'sib, voyaga yetib, shaxs sifatida shakllanadigan alohida sohasi hisoblanadi. Shuni aytish joizki insonning ongini va dunyoqarashini shakllantirishga oiladagi muhit va o'zaro shaxsiy munosabatlar katta ta'sir ko'rsatadi.

Inson taqdiri, uning jamiyatdagi o'rni, erishgan yutuqlari, shu bilan birga muvaffaqiyatsizligi ham uning oilasidagi ma'naviy ruhiy holatga bog'liq.

Har bir inson oila a'zosi, oila esa jamiyatning ajralmas qismidir.



Scanned by CamScanner

Har bir davrda farzand tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etgan.
Ko'plab oilalarida bolalarning jamiyatning munosib farzandlari etib tarbiyalash bo'yicha ijobiy tajribalar to'plangan. Lekin farzandlar tarbiyasida jiddiy xatolarga yo'l qo'yadigan oilalar ham uchrab turadi.

Oilaning farovon, ahil-inoqlikda bunyod etilishi jamiyat ravnaqi, yurt tinchligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan davlatimiz ijtimoiy hayotiga nazar tashlaydigan bo'lsak turli sohalarda rivojlanish, taraqqiy etish shuningdek o'sish suratlarini ko'rishimiz mumkin. Bunday sohalarga ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya yo'nalishlaridagi o'zgarishlarni ko'rsatib o'tish mumkindir. Ayniqsa davlatimiz himoyachilari avlodlar davomchisi bo'lgan yoshlarga e'tibor yuqori darajalar-



Scanned by CamScanner

da turibdi.
Oila hayotini to'g'ri tashkil etish, oilada sog'lom axloqiy muhitni yaratish lozim.
Oiladagi har bir hodisa, vaziyat, narsa bolaga, uning tarbiyasiga ta'sir qilmasdan qolmaydi. Ana shu ta'sir natijasida bolada salbiy yoki ijobiy xulq-atvor shakillari paydo bo'ladi.
„Nima eksang shuni olasan" kabi xalq iborasi oddiyligiga qaramasdan o'z ichiga ilmiy dalillarni olgan holda inson hayoti davomida oila sharoitida o'zlariga tanish bo'lgan kishilar bilan o'zaro munosabatlarida egallagan xulq namunalari o'z ta'sirini ko'rsatadi.
Shunday ekan, oilada psixologik sog'lom munosabatning shakillanishida, qolaversa, farzandlarning yetuk va komil inson bo'lib yetishishlarida ota-onaning roli va o'rni juda ham beqiyosdir.



Scanned by CamScanner

Bola parvarishi, uni barkamol shaxs sifatlari bilan hamohang tarzda ulgaytirish juda murakkab jarayon hisoblanadi.

Oilaning katta a'zolari ota-ona aka-opa bu jarayonda bevosita tasir etib boradi. Shuning uchun ham oila va oilaviy munosabatlar muqaddas hisoblanib bazaro ahillikni ta'lab qiladi.

Bundan tashqari oila a'zolarining bazaro bir-biriga nisbatan mehir ko'rsatishi gamxo'rligi, oqibatliligi negizida ham ko'plab tarbiyaviy hislatlar tarkib toptiriladi.

Bir soz bilan izohlaganda bolaning barkamol shaxs bo'lib ulgayishiga tasir etuvchi omillar qatorida oila va oilaviy munosabatlar boshlangich o'rinlarini egallaydi.

Shunday ekan oilada birdamlik taminlanishi lozimdir.

Shu o'rinda savol tug'iladi

„ Mehribonlik uylarida, bolalar

shaharchasida tarbiyalanayotgan bolalarga oila mehrini kim beroladi?
Tarbiyalanuvchilarni oilaviy munosabatlarga qanday tayyorlasha oladi? Bunday munosabatlarni mehribonlik uylarida ham shakllantirish imkoniyatlari mavjudmi.
Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining mahzun hayotiga chuqurroq kirib borib, unga e'tibor beradigan bo'lsak bu kabi savollar juda ham ko'pdir.
Bugun mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini nafaqat ta'lim-tarbiya dasturlari bilan tarbiyalashga, balki oilaviy hayotga, oilaviy munosabatlarga ham tayyorlash, o'rgatish muassasa rahbari hamda tarbiyachilarining asosiy faoliyatlaridan o'rin egallagan. Bunday faoliyatni to'g'ri tashkil etish esa muassasa rahbarlaridan katta kuch va harakat talab etadi.



Scanned by CamScanner

Oilada odob-axloq va ta'lim tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir.

"Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning bir ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Afsuski mana shunday mas'uliyatni xis qilmaydigan ota-onalar ham bugun jamiyatimizda borligi achinarli xolatlardandir.

Oilaning muqaddasligini, oilaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishni, farzandning buyuk ne'mat ekanligini bilmagan, xis qilmagan ota-onalar farzandlarini yolg'iz qoldirib, ularni Mehribonlik uylarida ulg'ayishga mahkum etmoqdalar.

Bunday muassasalarda tarbiyalangan bolalarning ulg'ayib mustaqil hayotga qadam qo'yishlarida turli xil ziddiyatlar

kelib chiqishi va bu ziddiyatlarni yolg'iz o'zi bartaraf etishga qiynalishi yillar davomida o'z isbotini topgan.

Mehribonlik uylarida tarbiyalangan bolalar ulg'ayib jamiyatga insonlar davrasiga kirib borar ekan unda dastlabgi inqirozlar yuzaga kela boshlaydi. Bunday inqirozlar ularning insonlar bilan to'g'ri munosabatga kirisha olmasligi natijasida yuz beradi. Buning oqibatida tarbiyalanuvchilarda jamiyatdagi insonlar borasidagi fikrlari salbiy bo'lib boraveradi.

Bu kabi inqirozli holatlarga tarbiyalanuvchilar oilaviy munosabatlarda ham duch keladi.

Ota-onaning bir-biriga bo'lgan munosabatini, aka-uka, opa-singil aloqalarini bilmasdan ulg'aygan mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari oila qurganida yuqoridagi munosabat va aloqalarni o'rnatishda qiyinchiliklarga duch keladi.



Scanned by CamScanner

Bugun davlatimizda bu kabi muammoli holatlarni bartaraf etish, eng muhimi uning oldini olish borasida tizimli ish reja ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq qilingan.

Mana shunday ishlardan biri bu mehribonlik uylari tarbiya-lanuvchilarini oilaviy munosabat-larga tayyorlash maqsadida ish-lab chiqilgan dastur, qaror, far-monlardir. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarni oilaviy munosa-batlarga tayyorlash borasidagi dasturda rahbar muassasa tarbiya-lanuvchilaridan iborat katta - kichik oilalar tashkil qilish ko'rsatil-gan. Tashkil qilingan oilalarga bittadan tarbiyachi biriktirilishi va u tarbiyalanuvchilarga ona mehrini, muhabbatini berishi, g'amxo'r-lik qilishi belgilab qo'yilgan.

Shuning dek bitta oilani tash-kil qilgan tarbiyalanuvchilarda akaga, ukaga, opaga, singilga qanday munosabatda bo'lish kabi eng

oliy xis tuyg'ular singdirib bor-ilaadi.

Mamlakatimizda bu kabi chora tadbirlarning yo'lga qo'yilishi va qat'iy tartib asosida nazoratning olib borilishidan maqsad bugun jamiyatimizda ro'y berayotgan salbiy holatlarning oldini olishdir.

Xususan Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga, turmushga tayyorlash, hayotiy ko'nikmalarini shakillantirish natijasida ajrimlarning oldini olish, bolalarni ijtimoiy yetimlikdan himoya qilish ko'zda tutiladi.

Bolani yoshligidan boshlab oilaviy odob axloq qoydalariga odatlantirish, yaxshi xulq atvorli bo'lishga o'rgatish oilada ota-ona tomonidan amalga oshiriladi. Bunday harakatlar esa bolaning kelajakda faol fuqoro pozitsiyasiga erishishida dastlabgi qadamlari xisoblanadi. Demak, bola tarbiyasiga oila va oilaviy munosabatlar o'z tasirini o'tkazmasdan qolmaydi.



Scanned by CamScanner

## 2.2. Tarbiyalanuvchilarni oilaviy munosabatga kirishishning pedagogik-psixologik tamoillarga amal qilishga tayyorlash.

Oilada shaxsni axloqiy shakillantirish bolaning tugilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar tasirida tarkib topadi. Bu omillar oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda ularning pedagogik madaniyati va nixoyat oilaviy va undan tashqaridagi hayotning tashkil etilishidagi ijtimoiy psixologik xodisalardan iborat.
Nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan esa „ma'naviy kasal" insonlar shakillanadi.
Bola shaxsining shakillanishida sog'lom oilaviy muhit katta ahamiyatga ega.
Ota farzandiga beradigan tuhfalari ichida eng afzali go'zal odobdir.
Hadis sharifda go'zal odob, ta'lim tarbiya ota farzandiga qoldiradigan



Scanned by CamScanner

moli dunyo, unga beradigan hadya va tuhfalar ichida uning yaxshisi va afzali ekanligi ta'kidlanadi. Zero, farzand yangi nihol kabidir. Uni qaysi tomonga egsa, o'sha tomonga qarab o'sadi.

Olimlarning ta'kidlashicha, ijobiy odatlar bolada qancha erta shakllantirilsa, uning mehnat va idrok etish qobiliyati shuncha tez va mukammal rivojlanadi. Bu borada ayniqsa ota-onalarning o'rni va ta'siri muhim bo'lib, oilada farzand tarbiyasida, barkamol avlodni shakllantirishda ularning tutgan o'rni va hissasi beqiyosdir. Oiladagi psixologik muhitni ijobiy bo'lishida ham kattalarning ta'siri katta ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish joyizki, sog'lom bola mustahkam oila tayanchi, mustahkam oila esa jamiyatning, davlatning tayanchidir. Oilada farzand tarbiyasi, uning hayotida baxtli bo'lishi uchun oilada iliq psixologik iqlim yaratilishi lozim.



Scanned by CamScanner

O'zbekistonda yosh avlod va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masaladir. Jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo'lgan talabi ham kun sayin ortib borayotganligi barchamizga ma'lum. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi e'tibor va harakatlarni Mehribonlik uylarida ham ko'rishimiz mumkin.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini oilaviy munosabatga tayyorlash borasida mamlakatimizda dastlabgi qadamlar tashlangan va bu borada ishlar olib borilmoqda.

Ruxsatan Respublikamizning ayrim viloyatlarida „Mehribonlik uylari" „Bolalar shaharchasi" „Bolalar uyi" nomida faoliyat yuritmoqdalar. Aynan mana shu muassasalarda tarbiyalanuvchilarni oilaviy munosabatlarga, mustaqil hayotga tayyorlash borasida samarali faoliyatlar yo'lga quyilganligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilaridan iborat katta-kichik oilalarning tashkil etilganligi fikrimizning dalilidir.



Scanned by CamScanner

Muassasada oilalarning tashkil etilishi va bolalarning oilaga biriktirilishi ham pedagogik-psixologik tahlillardan song amalga oshiriladi. Ya'ni bolalar oilaga o'zaro yosh farqlaridan hamda xarakter xususiyatlaridan kelib chiqib biriktiriladi.

Muassasada tashkil etilgan oilada tarbiyalanuvchilar bir-birlariga o'zaro hurmat, mehr-oqibat ko'rsatib, bir-birlarini himoya qilgan holda g'amxo'rlik qilib yashashadi.

Tarbiyalanuvchilarning oila muhitida ta'lim-tarbiya olishi, hayotiy tajribalarini o'rganishi, uni har tomonlama sog'lom kamol topishiga asos bo'ladi.

Bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va uni turli xil vaziyatlarda qanday tutush kerakligini o'rganadi. Bundan tashqari oila bolaning „meni" shakillanishida asosiy maskan bo'lib hisoblanadi.



Scanned by CamScanner

Bolada menning shakillanishi, rivoj-lanib borishi uni harakatga undaydi. O'z „meniga" ega bo'lgan bola „meniki" tushunchasini to'g'ri anglagan holda o'ziga tegishli bo'lgan barcha narsalarni himoya qilib qadirlay boshlaydi. Natijada bolaning ongi va ruhiyatida o'zi qadirlagan insonlari, narsa-lariga nisbatan mehr-muhab-bat shakillanadi.

Shuningdek tarbiyalanuvchilar bir oila bo'lib yashashlari davomi-da ular o'zidan kattaga qan-day murojat qilishi hamda kichiklarga qanday munosabatda bo'lishi kerakligi kabi tajriba-larni mustahkamlab boradi. Bu kabi tajribalar esa uni jamiyatning meyor va qoidalariga amal qilib faol fuqoro bo'lib yashashini taminlaydi. Shuningdek oilada bola to'g'ri muloqot madaniyatini ham o'r-ganadi. Yuqori muloqot madaniyatiga ega inson atrofdagilarning hurmat etiborini qozona oladi.



Scanned by CamScanner

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari uchun eng qo'rqinchli narsa bu - ularning yolg'iz qolishidir. Ular e'tiborni, mehrni, qo'llab-quvvatlashni, shirin so'zni shaydolaridir.
Begunoh bu bolalar atrofidagi insonlaridan ota-onasidan ololmagan muhabbatni izlaydi. Ushbu muassasalarda oilalarning tashkil etilishi esa bolalardagi yolg'iz qolishdek qo'rquvni bartaraf qiladi. Bolalar o'zini oilasi davrasida, himoyasida bo'lgandek his qilishi uchun esa muassasada barcha sharoit va imkoniyatlar mujassam. Lekin faqatgina o'z jismida ulg'aytirgan onasining tafti, muhabbati kamdek.
Mehribonlik uylarida oilaviy munosabatlarning yo'lga qo'yilishidan asosiy maqsadlardan biri tarbiyalanuvchilarning o'z ota-onasidan ololmagan mehrni-e'tiborni o'zgalardan olishga imkon berish bo'lsa ya'na bir maqsad tarbiyalanuvchilar mustaqil hayot



Scanned by CamScanner

da oila qurib farzandli bo'lgan-
larida farzandi uchun g'amxo'rlik
qilishni, asrab avaylashni ingdir-
ishdir.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi-
lari haqiqiy ota-ona mehrini-
muhabbatini xis qilish baxtidan
mosuvo bo'lgan bo'lsada, lekin
kun kelib o'zlari ota-ona
bo'lishganida farzandlarini bunday
baxtdan mahrum qilmasliklariga
qatiy ishonch bildiraman. Chunki
bugun ular oilalarda yashash-
moqda, oilaning, oilaviy mehrning
qudratini, kuchini qisman bo'l-
sada ular xis qilmoqdalar.

Shunday ekan bu bolalar
kelajakda oilaning muqaddas-
ligini saqlagan holda oilaviy
rishtalarni mustahkamlab borishadi.
Albatta ota-onasi yo'l qo'ygan
xatolardan ular o'zlari uchun
yetarlicha xulosa chiqaradi deb
o'ylayman. Shu o'rinda mehribonlik
uylarida oilaviy munosabatlarning
yo'lga qo'yilishini qo'llab-quvvatlayman



Scanned by CamScanner

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi-larini oilaviy munosabatga kir-itishning pedagogik - psixologik tam-oillarga amal qilishga tayyor-lashda muassasada oilaviy muno-sabatlarning yo'lga qo'yilishi dast-labgi qadam bo'lib hisoblana-di.

Muassasa rahbari, ishchi xodim-lar hamda keng jamoatchilik bu harakatni davomli tarzda olib borish uchun masuldir. Tarbiyalanuvchilarni oilaviy muno-sabatga tayyorlashda e'tibor beriladigan pedagogik psixologik jihatlar mavjud. Bunday o'ziga xoslik tashkil etilgan oilalar-ning mustahkamlanishini tamin-laydi deyish mumkin.

Tarbiyalanuvchilarni oilaviy munosabatga tayyorlashda uning pedagogik - psixologik jihatlariga alohida e'tibor qaratish kelajak-da tashkil etiladigan oilalar-ning mustahkamligi, farovonligi garovidir.



Scanned by CamScanner

Tarbiyalanuvchilarni oilalarga biriktirib tashkil etilgan oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimiz urf-odatlarimiz hamda o'zbekona odob-axloq sifatlari singdiriladi bunda esa bolada insoniy fazilatlar qaror topa boshlaydi.

Oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha hayotiy vaziyatlar, holatlar bola tajribasini oshirishga xizmat qiladi.

Ota-ona shaxsining o'zi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashi shubhasizdir. Ularning oqilona o'gitlari, pand-nasihatlarining hech biri, ularning shaxsiy namunasi o'rnini bosa olmaydi. Bolalarning axloqiy fazilatlarini tarkib topishida, oiladagi o'zaro ahillik, xalollik va rostgo'ylik, o'zaro ishonchning mavjudligi, umuman sog'lom axloqiy muhit, ijobiy psixologik iqlim muhim ahamiyatga ega.

Shunday ekan Mehribonlik uyi



Scanned by CamScanner

Tarbiyalanuvchilarini oilaviy munosabatlarga tayyorlashda oila azolarining har birining vazifalari, burchlari o'rgatilib, singdirilib borilar edi.

Oila hayotini to'g'ri tashkil etish, oilada sog'lom axloqiy muhitni yaratish juda katta mehnat va mas'uliyat talab etadi.

Bugun dunyo siyosati, davlat taraqqiyoti, jamiyat ravnaqi, tinchligi uchun ana shunday xar tomonlama sog'lom oila va oilaviy munosabatlarni yo'lga qo'ymoq lozim. Bunda o'sib kelayotgan yosh avlodga ularning ta'lim-tarbiyasiga jiddiy etibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi yoshlar ham bundan mustasno emas. Biz barcha yoshlar taqdiri uchun birdek harakat qilmog'imiz lozim. Ana shunda yurt tinchligi taraqiyoti ishonarli qo'llarda deyish mumkin.



Scanned by CamScanner

## 2.3. Tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning zamonaviy usul va vositalari.

Jamiyatimizda ro'y berayotgan har qanday o'zgarishlar oilalar va unda tarbiyalanayotgan kelajak avlod uchun baxtli kelajakni yaratish uchun zamin yarata oladi.

O'zbekistonda yosh avlod va uning taraqqiyoti davlat ahamiyatiga molik masaladir. Jamiyatning oila va oilaviy tarbiyaga bo'lgan talabi ham kun sayin ortib borayotgani barchamizga malum.

Azaldan o'zbek oilasining dunyodagi boshqa oilalarga o'xshash tomonlari ko'pligi, ammo shu bilan birga uning o'ziga xos jihatlari ham yo'q emas. Milliy tarbiyaga oid adabiyotlarda „O'zbek oilalarining o'ziga xos tomoni ibo-hayoning kuchliligidir. Oila an'anaviy tarbiyaning asosiy instituti bo'lib xisoblanadi. Bola yoshlik davrida oilada olgan ta'lim tarbiyasini butun umri



Scanned by CamScanner

davomida saqlab qoladi.

Shubxasiz, Ozbekona tarbiyani odob, axloq, sharm-hayo, poklik, beguborlik, bagrikenglik, mardlik, toatilik, jasurlik kabi insoniy sifatlarning asl namunasi deb aytish mumkin.

Sharq mutafakkirlarining oila va oila boshligi bo'lgan otalar, erkaklarning jamiyatdagi o'rni xususidagi fikrlari mavjud.

„Qobusnoma" tarbiya borasida hisoblanuvchi nodir asarlardan xisoblanadiki, undagi fikrlar va ko'rsatmalar ota-onalar uchun, ayniqsa oila qurish arafasidagi bo'lgan o'smir va o'spirinlik yoshidagi yigit qizlarni tarbiyalanishida muhim dasturdir.

Oila muammolari, shaxslararo munosabatlarning insoniyat jamiyati kabi qadimiy va dolzarbligi bois o'tmish mutafakkirlaridan tortib to hozirgi zamon tadqiqotchilari ham oila va oilaviy muammolarga o'z etiborlarini qaratganlar.



Scanned by CamScanner

Sharqning buyuk allomalari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy kabi ko'plab olimlar nikoh-oila masalalarida o'zlarining durdona fikrlarini qoldirib ketganlar.

Sharq mutafakkirlarining barchasini g'oyaviy jihatdan birlashtirgan asos shuki, ular shaxs tarbiyasi va kamolotida otaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo'yishgan. Ayniqsa shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o'rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo'naltiruvchi va tarbiyalanuvchi vazifalariga alohida etibor berganlar.

Sohibqiron bobomiz Amir Temur ham o'g'il uylantirish, kelin tanlash, farzand tarbiyasini davlat siyosati darajasiga ko'targanligi ham bejiz emas. Davlatning qudrati sog'lom fikrli, bilimli, axloq-odobli, xalq, millat, Vatan taqdiri uchun jonini tikkan insonlar qo'lida. Bunday insonlar esa boz oilada tarbiyalanadi.



Scanned by CamScanner

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy immuniteti, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, iymon-e'tiqodli mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi.

Bugun davlat, jamiyat aynan ma'na shunday yosh avlodni tarbiyalamoqda.



Scanned by CamScanner

Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, milllati, diniga va an'analariga sodiq bo'lib kamol topishsin. Chunki bizning ajdodlarimiz qoldirgan boy ma'naviy meros durru gavharga tengdir. Faqat undan yoshlarimiz to'g'ri foydalana olishi lozim. Ajdodlarimizning hayotiy tajribalari hamda ilmiy-nazariy fikirlari va qarashlari biz yoshlarni oilaviy hayotda to'g'ri yo'lga boshlaydi.

Bugun mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarning oilaviy hayotga tayyorlash borasida olib borilayotgan ishlar va rejalar qatorida tarbiyalanuvchilarni ajdodlarimizning oilaviy munosabatlar borasidagi qarashlari hamda fikirlari bilan tanishtirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning zamonaviy usul va vositalaridan ham

foydalanish davr talabi hisoblanadi.
Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirin so'zlik bilan tarbiyalashdir.
Bu ikki vosita bir bo'lib bolani shakllantiradi, shu jumladan, ta'limni ham qarab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma'qul, zero, zo'rlab berilgan ta'lim bola xotirasidan tezda o'chib ketadi. Oilada bola tarbiyasi shuningdek oila a'zolarining o'zaro hurmat va e'tiborda yashashi oilaning mustahkamligini ta'minlaydi.
Bugun davlatimiz rahbari talabi va tashabbusi bilan Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilayotgani ayni haqiqat.
Shu o'rinda tarbiyalanuvchi larni oilaviy hayotga tayyorlashning zamonaviy usullari haqida, uning tashkiliy darajasi, samaradorligi hamda qulayliklari haqida ham aytib o'tish mumkin.



Scanned by CamScanner

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchi-
larini oilaviy hayotga tayyorlash
borasida olib borilayotgan ish-
larga, reja, dasturlarga qo'shimcha
sifatida tarbiyalanuvchilarga oila
qanday shakllanishi, oilani qan-
day asrab avaylash, oila a'zo-
lari bir-birlariga qanday
munosabatda bo'lishi haqida
kinofilmlar, videoroliklar tayyor-
lab tarbiyalanuvchilar bilan bir-
galikda tahlil qilish uning ma'no
mazmunini chuqurroq anglashi kerak.
Shuningdek tarbiyalanuvchilar bilan
uzoq hayotiy tajribaga ega bo'lgan
nuroniy ota-onalar davra suhbat-
larini tashkil etish maqsadga muvofiq
bo'ladi.
Bundan tashqari bugun oilaviy muno-
sabatlarni mustahkamlash borasida-
gi amalga oshirilib borilayotgan buyuk
mutafakkirlarimizning qarashlari va
fikrlarini targ'ib qilish, hamda
oilaviy qadriyatlarni, urf-odatlar-
ni tarbiyalanuvchilar ongiga
chuqur singdirish lozim.



Scanned by CamScanner

Bugun ta'lim-tarbiya borasidagi davr talabi hisob langan psixalogik bilim lar bilan ham tarbiya lanuvchilarni yaxshiroq tanish tirib borishni yo'lga qoyish lozim. Chunki oilaviy munosabat larni mustahkam bo'lishida oila a'zolari bir-birlarini shaxsini uning „menini" hurmat qilsa shuning dek fikir va qarorlariga hurmat bildirsa o'zaro hurmat va mehr shakillanadi.
Mehr va hurmat oilaviy munosabatlarni mustahkam layotigon asosiy vositalardir.

Shunday ekan tarbiya lanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida pedagogik-psixalogik bilim lardan ham foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylayman.
Chunki yuqoridagi fikirlarimda keltirib o'tgan mehr, muhabbat o'zaro hurmat pedagogik-psixalogik bilim larda chuqurroq, aniqroq mukammalroq tushuntirilib shakillantirilib boriladi.



Scanned by CamScanner

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, sog'lom bola mustahkam oila tayanchi, mustahkam oila esa jamiyatning, davlatning tayanchidir.
Oilada farzand tarbiyosi uning hayotida baxtli bo'lishi uchun oilada ilk psixologik iqlim yaratilishi lozim. Bunday ijobiy iqlim yaratish uchun esa ota-ona yetarlicha psixologik bilimlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.
Xalqning, Millatning, Davlatning jamiyatning bugungi kun talabi mustahkam oila qurish va oilalarning muqaddasligi va mustahkamligini ta'minlash. Shunday ekan yosh avlodni shu qatori Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashda barcha imkoniyatlardan foydalanish hamda mas'uliyat hissi bilan yondoshish lozim.
Zero Vatan oiladan boshlanadi. Oilamiz tinchligi, Vatanimiz tinchligi, taraqqiyoti garovidir.



Scanned by CamScanner

Ajdodlarimizdan qolgan bu zaminni, ona tuprog'ni asrab avaylashda uni himoya qilishda biz yoshlarning jismoniy kuchimiz tayyorgarligimiz bilan bir qatorda yuksak ma'naviyatimiz, madaniyatimiz ham bo'lishi lozim.

Yosh avlodda bu ikki jihat ham oilada shakllantirilib boriladi. Mustahkam oilaviy hayotga tayyor bo'lgan ota-onalargina mana shunday manan sog'lom, jismonan baquvvat farzandlarni tarbiyalashga qodirlar.

Demak yoshlarni, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashda ularning fiziologik yetuk-ligi bilan bir qatorda ma'naviy ijtimoiy, huquqiy, psixologik yetuk bo'lishlariga erishish maqsadga muvofiqdir.



Scanned by CamScanner

# III. BOB. Tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash yuzasidan tajriba - sinov ishlari.

## 3.1. Tajriba - sinov ishlarini tashkil etish metodikasi.

Bugungi kunda yosh yigit va qizlarimizni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillaridan boshlab yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, urta va qarindoshlar orasidagi nikohlarning oldini olish, buning asoratlarini ota-onalarga va yoshlarga tushuntirish shariy nikohni qonuniy ravishda amalga oshirish, oilalar mustahkamligini ta'minlash masalalariga alohida etibor qaratish asosiy vazifalardan bo'lgan.

Bugun ham bu kabi muammolarga jiddiy etibor qaratilmoqda hamda samarali faoliyatlar olib borilmoqda.

Mana shunday faoliyatni olib borishda o'z hissamni qo'shish maq-



Scanned by CamScanner

sohasida bilimni malakaviy ishim mavzusini Mehribonlik uyi, Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga qaratdim.

Yuqoridagi bob va paragraflarda mavzuning nazariy qismini imkon darajasida bilim, ko'nikmalarimdan kelib chiqqan holda yoritib o'tdim. Endigi qismda ushbu muassasa yoshlari bilan olib borgan tajriba-sinov ishlari undan olingan natijalar bilan tanishtirib o'taman.

Tajriba sinov ishimiz Sirdaryo viloyati Guliston shahar "Bolalar shaharchasida olib borildi. Ushbu muassasada jami 76 nafar tarbiyalanuvchi mavjudligi, shundan 44 nafari o'g'il bola, 31 nafari qiz bolalar tashkil etishi malum qilindi.

Tarbiyalanuvchilarning millatlar kesimida taqsimlanishi

1-jadval.

| № | O'zbek | Rus | Tojik | Tatar | Ozarboyjon | uyg'ur |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | 47 | 10 | 13 | 3 | 1 | 1 |



Scanned by CamScanner

Tajriba - sinov ishlari muassasadagi barcha yoshdagi bolalarni qamrab oldi. Bunda har bir yosh davriga mos bo'lgan metodikalardan foydalanib ularning oila. Oilaviy munosabatlar hamda kelgusida oila qurishga bo'lgan fikir va tasavvurlari haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Muassasa tarbiyalanuvchilarining yosh ko'rsatkichlari.

2-jadval

| № | 5 yosh | 6 yosh | 7 yosh | 8 yosh | 9 yosh | 10 yosh | 11 yosh | 12 yosh | 13 yosh | 14 yosh | 15 yosh | 16 yosh | 17 yosh |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 3 | 1 | 1 | 5 | 3 | 7 | 9 | 1 | 6 | 11 | 11 | 10 | 7. |

Tajriba - sinov ishlarida 5, 6, 7, 8 yoshdagi tarbiyalanuvchilardan oila haqidagi tasavvurlarini bilish maqsadida „oila" „mening oilam" metodikalaridan foydalanildi.

Metodika quydagicha foydalanildi: Bolalarga „oila" hamda „o'z oilasini" rasmda chizib tasvirlashlarini vazifa sifatida berdim.



Scanned by CamScanner

Tajriba - sinov jarayonida 9 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilarning oila, oilaviy munosabatlar borasidagi tasavvurlarini bilish maqsadida „Rene jil" metodikasidan foydalandim.

Metodikadan quydagicha foydalanildi:

1. Mana, atrofida turli odamlar o'tirgan stol (tayyor rasm qo'liga berildi) o'zing o'tirgan joyni belgila. —

2. O'zing va bir necha kishilarni stol atrofiga joylashtir (tayyor rasm qo'liga berildi) ularga nom ber - otam, onam, akam, (ukam), opam, (singlim), do'stim, sinfdoshim va hokazo. —

3. Shahardan tashqariga sayirga chiqish imkoning bor. Kimlar sen bilan borishini ko'rsat.

Keyingi tajriba - sinov ishlarini 11 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan olib bordim. Bolalarning oila borasidagi fikirlarini „suxbat" „kuzatish" metodikalari orqali bilishga muvofiq bo'ldim.

15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilardan kelgusida oila qurishga bo'lgan xohish - istaklari va



Scanned by CamScanner

bilim, ko'nikmalarini aniqlash maqsadida psixologik so'rovnoma o'tkazdik.
So'rovnoma mazmuni quyidagicha.

1 Siz oila qurib mustaqil hayotga qadam tashlashga tayyormisiz? [ha, yo'q, qisman]
javoblari qabul qilinadi.
2. Oilaning mustahkamligiga kim ko'proq masul? [ayol, erkak, ikkalasi ham].
3. Farzand tarbiyasiga oilada kim ko'proq javobgar? [erkak, ayol ikkalasi ham]
4. Oilalar birlikiga tasir etuvchi omillar deb nimalarni aytolasiz?
shaxsiy fikringiz ____________________

____________________.

Tajriba - sinov jarayonlarida tarbiyalanuvchilarning qatnashish vaqtlarida bevosita ularni kuzatish orqali to'plagan xulosalarimiz va olingan natijalar shuni ko'rsatadiki Mehribonlik uylari, Bolalar shaharchalarida tarbiyalanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi chora-tadbirlarni kuchaytirish, hamkor tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq



Scanned by CamScanner

Tajriba-sinov jarayonida Guliston shahar „Bolalar shaharchasi" tarbiyalanuvchilari ushbu muassasaga qanday holatlarda keltirilganligiga ham etibor qaratdik va quydagi malumotlarni oldik.

Guliston shahar „Bolalar shaharchasi"da tarbiyalanayotgan ijtimoiy yetim bolalar 14 nafarni tashkil etadi.
Shundan 3 nafar tarbiyalanuvchining otasi vafot etgan, onasi onalik huquqidan mahrum qilingan. 8 nafar tarbiyalanuvchilarning esa onasi vafot etgan otasi otalik huquqidan mahrum qilingan.

Guliston shahar „Bolalar shaharchasi"da tarbiyalanayotgan ota-onasi vafot etgan bolalar 85 nafarni tashkil etadi.
Tarbiyalanuvchilarning muassasaga keltirilish sabablarini ham o'rganishdan maqsad, ularni oilaviy hayotga tayyorlash borasida inobatga olinadigan psixologik xususiyatlarini bilishga imkon beradi.

Yani bolaning muassasaga kelishiga sabab bo'lgan omillar uning oila, oilaviy munosabatlar borasidagi tasavvurlariga o'z tasirini ko'rsatadi.



Scanned by CamScanner

## 3.2. Tajriba-sinov ishlarining natijalari taxlili.

Ŏtkazilgan tajriba-sinov natijalari taxlili quydagicha.

5 yoshdan 9 yoshgacha bŏlgan jami 10 nafar tarbiyalanuvchilarning oila, oilaviy munosabatlar borasidagi tasavvurlari quydagicha baxolandi.

3-jadval.

| Tarbiyalanuvchilarning soni | Bilim, kŏnikma, malakalari darajasi. | | |
|---|---|---|---|
| | Yuqori | Ŏrta | Past. |
| 10 | 2 | 5 | 3. |

Tajriba sinovda ishtirok etgan 9 yoshdan 11 yoshgacha bŏlan tarbiyalanuvchilarning natijalari quydagicha taxlil qilindi.

4-jadval

| Tarbiyalanuvchilar soni | Bilim, kŏnikma, malakalari darajasi. | | |
|---|---|---|---|
| | Yuqori | Ŏrta | Past |
| 10 | 3 | 5 | 2 |

11 yoshdan 16 yoshgacha bŏlgan



Scanned by CamScanner

muassasa tarbiyalanuvchilarining oila, oilaviy munosabatlar borasidagi bilim ko'nikmalari quyidagicha baholandi:

5-jadval.

| Tarbiyalanuvchilarning soni | bilim, ko'nikma, malakalari darajasi. | | |
|---|---|---|---|
| | yuqori | o'rta | past |
| 27 | 9 | 12 | 6 |

Muassasa tarbiyalanuvchilarining 15-yoshdan 18 yoshgacha bo'lganlarida oila, oilaviy munosabatlar hamda kelajakda oila qurish haqidagi xohish va tasavvurlari o'rganilganda quyidagi xulosalarni olish imkonini berdi.

Berilgan so'rovnomada 28 ta tarbiyalanuvchi ishtirok etdi.

Shundan

9 ta tarbiyalanuvchi savollarga ijobiy javob berdi.

14 ta tarbiyalanuvchi savollarga qoniqarli javob berdi.

5 ta tarbiyalanuvchi savollarga qoniqarsiz javob berdi.

Olingan natija va xulosalardan so'ng tarbiyalanuvchilarga kerakli tavsiyalar berildi.



Scanned by CamScanner

# Xulosalar.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini jahon miqyosida yil sayin barqarorlashtirib borar ekan, uning istiqboli, bugungi avlodning bilimdon, ma'naviy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Zero, Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelajak avlodi haqida qayg'urish bizning milliy, o'zbekona, xususiyatlarimizga xos fazilatdir.

Mustaqilligimiz sharofati ana shunday ustuvor strategik yo'nalishlardan munosib o'rin egallaganimiz bejiz emas. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta'lim to'g'risida"gi qator qonunlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilishni, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarishni, mutaxassislarni esa raqobatbardosh, faol shaxslar etib tayyorlashni nazarda tutadi.



Scanned by CamScanner

Bu borada ayniqsa Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ta'lim-tarbiyasiga, shuningdek ularni oila-viy munosabatlarga tayyorlashga alohida urg'u berilayotgani mu-him ahamiyat kasb etadi. Zero, bolaga o'z vaqtida samara-li ta'sir ko'rsata bilish uning keyingi taraqqiyoti uchun mustah-kam poydevor yaratishga asos bo'l-adi.

Biroq, jamiyatimizda kechayotgan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi keskin o'zgarishlar manzarasida bolalarning ijtimoiy him-oyaga muhtoj, qarovchisiz qolish holatlari ham uchrab turibdi. Bunday vaziyatlarda esa davlati-miz bu bolalarni o'z qaramog'iga olib ularni ijtimoiy himoya qilishni, zamon bilan hamohang ravishda ta'lim tarbiya berib borishni, eng asosiysi esa ularni oilaviy munosabatlarga, mustaqil hayotga tayyorlab bor-ishni taqozo etmoqda.

Bolalarni Mehribonlik uylariga



Scanned by CamScanner

qabul qilib ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish davlatimizning, bizning oldimizdagi mas'uliyatli burchlarimizdan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun bugun mamlakatimizda barcha shart-sharoitlar imkon darajasida, zamon talablariga mos xolda yaratilganligi barchamizga malum.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimov alohida takidlaganlaridek yurtimizda tinchlik-totuvlik, xotirjamlikni saqlash, bir-birimizga yelkadosh, ahil-inoq bo'lib yashashimiz, yetim-yesirlar, nogironlar, qariyalar, bolalar va qaramsiz va muhtoj kishilarimiz himoyasini tashkil etishda o'zimizning kuchimizni va mehnatimizni hech qachon ayamaymiz.



Scanned by CamScanner

Shunday ekan, Mehribonlik uy-larida tarbiyalanuvchi bolalarni oilaviy hayotga, oilaviy munosabat-larga to'g'ri shakillantirib bor-ish va ularni komil inson sifatida tarbiyalash bugungi kunning asosiy maqsadi va vazifa-laridandir.

Shu maqsad va vazifalardan kel-ib chiqib, biz Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining pedagogik-psixo-logik xususiyatlarini ilmiy-nazariy tomondan to'liq o'rganib, o'tkazil-gan tadqiqotlarimizdan quydagi xulosalar yaratishga muvaffaq bo'ldik.

1. Mehribonlik uylaridagi bola-larda yolg'iz qolishi natijasida shakillangan qo'rquvni oilaviy e'tibor mehr orqali bartaraf etish mumkinligi malum bo'ldi.

2. Jamiyatimizda kechayotgan demokratik o'zgarishlar manzarasi-da bolalarning qarovchisiz, himoya-siz qolish muommosi yanada dolzarb ahamiyat kasb etib



Scanned by CamScanner

ularga nisbatan e'tiborni kuchaytirishni tagoro etmoqda.

3. Izlanishlarimiz Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi ustuvor omillarni aniqlashga imkon berdi.

4. Turli ijtimoiy sharoitlarda voyaga yetgan bolalarning oilaviy munosabatlarga tayyorlik darajalari ham turlicha ekanligi bu esa ulardagi shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi va namoyon bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatishi ma'lum bo'ldi.

5. Mehribonlik uylaridagi ta'lim jarayonida bolalar o'zlarining erkin va ixtiyoriy xulq-atvorlari, harakatlari va intellektual xislatlarini to'liq namoyon qilmasliklari kuzatuvlar davomida o'z tasdig'ini topdi.

6. Markaz izlanishlarimiz davomida guvohi bo'lgan vaziyatlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki Mehribonlik uylaridagi bolalar



Scanned by CamScanner

oilaviy hayotga, oilaviy munosabatlarga oila a'zolarining mehriga muhtoj'lar.

7. Ota-onasi bag'rida ta'lim-tarbiya olib voyaga yetayotgan yoshlar bilan Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchi bolalarning ruhiy kechinmalari o'rtasida tafovutlar mavjudligi aniqlandi.

Bugungi kunda mustaqil Respublikamiz dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinayotgan ekan, uning kelgusidagi rivoji, gullab yashnashi bugungi kun yoshlariga bog'liqdir.

Demak, bugungi yoshlar har tomonlama rivojlangan o'ziga, o'zga insonlarga, jamiyatga, tabiatga va mehnatga o'z munosabatini to'g'ri bildira oladigan, mustaqil faoliyat yurita oladigan, ijodkor faol shaxslar bo'lishi lozim.

Shuningdek yoshlar ta'lim-tarbiyasida oilaviy munosabatlar borasida ham yetarli darajada saboq berib borilmoqda.

Hozirgi kunda davlatimiz tomoni-
dan olib borilayotgan ta'lim
va tarbiya sohasidagi islohat-
lar, mehribonlik uylariga ber-
ilayotgan yuksak etibor uning
dono siyosatidan dalolat ber-
radi.
Ana shunday ulkan maqsad-
larni amalga tadbiq etish biz
pedagog-psixologlardan ham
mahorat va mas'uliyat talab et-
adi.

## Tavsiyalar.

Mazkur izlanishlarimiz samarasi olin-
gan xulosalarimiz quydagi tavsiyalar-
ni yaratishga imkon berdi.
- Mehribonlik uyi tarbiyalanuv-
chilarini oilaviy hayotga tayyor-
lashda unitilib borilayotgan ajdod-
larimizning ulkan ma'naviy merosi-
dan, asrlar davomida to'plangan
milliy qadriyatlar, urf-odatlar va
an'analardan foydalanishga ko'proq
etibor qaratish maqsadga muvofiq



Scanned by CamScanner

bo'ladi.

- Tarbiyalanuvchilarda ma'naviy axloqiy tarbiyani, muloqot madaniyatini shakllantirishga oid chora-tadbirlarni kuchaytirish, samarali faoliyat olib borish.

- Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini oilaviy hayotga tayyorlashda mehribonlik uylari va hamkor tashkilotlar faoliyatini to'g'ri tashkil etish.

- To'plangan materiallardan mehribonlik uylari tarbiyachilari, maktab o'qituvchilari, o'rta-maxsus o'quv yurtlari pedagoglari faoliyatlari jarayonida qo'llanma sifatida foydalanishlari tavsiya qilinadi.

Shuningdek Mehribonlik uylaridan mustaqil hayot kechirishga o'tgan, yaqin kelajakda oila qurib, oilaviy munosabatlarga kirishuvchi yoshlar ham o'zlari uchun uslubiy qo'llanma sifatida foydalansalar ijobiy natijalarga erishishlari mumkin.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.


1. Ózbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. „Ózbekiston" 2018.

2. Ózbekiston Respublikasining „Ta'lim tóg'risidagi Qonuni". T. „Sharq" 1997.

3. Kadirlar tayyorlash milliy dasturi. T., „Sharq". 1997

4. Ózbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „Mehribonlik uyi tóg'risida Nizom" T. 1995.

5. Karimov I.A. „Ózbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yónalishlari" T. „Ózbekiston" 1992 [28. bet].

6. Karimov I.A. Oila faravonligi - millat faravonligi: Xalq sózi gazetasi. - 1997. - B. 8.

7. Bóriyev O. Ózbek oilasi tarixidan. -T.: Ógituvchi. 1995. -128 b.

8. Egamberdiyeva N. „Ijtimoiy pedagogika" T. - 2009.

9. Ishmuxammedov R. „Óquv jarayonida innovatsion ta'lim texnalogiyalari". Metodik qóllanma. 2014.

10. Inamova M. „Oilada bolalarning ma'naviy axloqiy tarbiyasi". -T.: „Ózbekiston" 1999.




Scanned by CamScanner

11. Inamova M. „Farzand nihol, ota-ona bog'bon"–T.: „O'zbekiston" 1993.

12. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi: O'quv qo'llanma. –T.: 2006 -142 b.

13. Karimova V. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi. –T.: Yangi asr avlodi, 2004. -28 b.

14. Karimova V. Oila tafakkur va salomatlik; 2005. 8-9-11.

15. Musurmonova O. Bolalar tarbiyasida oilaning ro'li. –T.: 1997.

16. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyat va yoshlar tarbiyasi. –T.: „O'zbekiston" 1996.

17. Risqulov F.R. O'zbek oilalarida ajralishning ijtimoiy-psixologik asoratlari.: Dis... psixologiya fan nomzodi: 19.00.05. –T.: 2002. -160 b.

18. Safarov O., Maxmudov M. „Oila ma'naviyati". –T.: „Ma'naviyat" 1998. -160 b.

19. Salayeva M.S. O'zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o'zaro munosabatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Dis... psixol. fan. nom. 19.00.05. –T.: 2005.

20. Xalilova Sh. Mehribonlik uylarida tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlash metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: 2017.



Scanned by CamScanner

21. G'oziyev E. Yosh psixologiyasi -T.: 1994. -145 b.
22. www.tdpu.uz.
23. www. bilimdon.uz.
24. www. ziyonet. uz.
25. www. pedagog. uz.
26. w.ww. fikr. uz.



Scanned by CamScanner